

QOBILIYAT VA IQTIDORNING O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Andijon davlat pedagogika instituti „Pedagogika va psixologiya“ kafedrası
v/b dotsenti psixologiya fanlari doktori
Vahabova O'g'ilxon Tolibjonovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 102-guruh talabasi
To'lanova Zulfiyaxon G'iyosiddin qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning qobiliyat va iqtidorining shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, tug'ma layoqat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya, oila muhiti va shaxsning o'z ustida ishlashi kabi jihatlarning ahamiyati yoritiladi. Qobiliyatning umumiy va maxsus turlari, pedagogik yondashuv va o'qituvchining roli, bolaning qiziqishi hamda qat'iyatlilik kabi omillar qobiliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: qobiliyat, iqtidor, iste'dod, tug'ma layoqat, oila muhiti, tarbiya, ta'lim, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, umumiy qobiliyat, maxsus qobiliyat.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ И ТАЛАНТОВ

*Доцент кафедры «Педагогика и психология» Андиганского
государственного педагогического института, доктор психологических
наук **Вахабова Угулхон Толибжоновна***

*Студентка 102-группы направления узбекского языка и литературы
филологического факультета Андиганского государственного
педагогического института*

Туланова Зулфияхон Гиясиддин кызы

Аннотация: В статье подробно анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на формирование и развитие способностей и талантов человека. Особое внимание уделяется значению врожденных задатков, социальной среды, воспитания, образования, семейной атмосферы и самосовершенствования личности. Рассматриваются общие и специальные способности, педагогический подход, роль учителя, интерес и настойчивость ребенка как ключевые условия развития способностей.

Ключевые слова: способность, талант, гениальность, врожденные способности, образовательная среда, семейная атмосфера, воспитание, обучение, психологические особенности, социальная среда, общие способности, специальные способности.

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF ABILITIES AND TALENTS

*Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology at
Andijan State Pedagogical Institute, Doctor of Psychological Sciences,
Vakhabova Ugilkhon Tolibjonovna*

*Student of Group 102, Uzbek Language and Literature Department, Faculty
of Philology, Andijan State Pedagogical Institute,
Tulanova Zulfiyakhon Giyasiddin qizi*

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the internal and

external factors that influence the development and manifestation of human abilities and talents. It emphasizes the importance of innate potential, social environment, education, upbringing, family dynamics, and self-improvement. The paper explores general and specific abilities, pedagogical strategies, the role of teachers, and the significance of a child's interests and persistence in nurturing talent.

Key words:*ability, talent, genius, innate ability, family environment, upbringing, education, psychological traits, social environment, general abilities, specific abilities.*

Psixologiyada **qobiliyat** individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va uning asosida har bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan hislatlari, fazilatlarini yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyati bo'yicha bir-biridan muayyan darajada farq qiladi. Binobarin, ular o'rtasida sifat va miqdor jihatidan farqlar ko'p bo'lishi mumkin. Qobiliyatning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, oson, puxta foydalana olishini namoyon qiladi. Qobiliyatlar umumiy va mahsus bo'ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Masalan: kuzatuvchanlik, konstruktiv hayol, tez fikrlay olish kabilar ma'lum darajada barcha faoliyat turiga xosdir. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiynalmay o'qiydilar. Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beradi. Masalan: musiqa, texnika, matematika, rassomchilik qobiliyatlari maxsus qobiliyatdir. Qobiliyatlar o'zining sifat va miqdor darajasi bilan xarakterlanadi. Qobiliyatning sifat xarakteristikasi shaxsning qobiliyatlari nimaga nisbatan namoyon bo'lishini,

qanday individual psixologik xususiyatlar faoliyat jarayoni muvaffaqiyatining zaruriy sharti ekanligi bilan xarak- terlanadi. Masalan: O'qituvchi tashabbuskorlik, talabchanlik, mehribonlikni his qilish, kuzatuvchanlik, kashfiyotchilik, javobgarlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Qobiliyatlarning miqdor xarakteristikasi shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallashi bilan xarakterlanadi.¹

Genial yoki geniy deb, biz shunday kishilarni aytamizki, ular niho- yatda katta masalalarni hal qiladilar, butun bir sinf yoki xalqlar uchun, barcha insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, misli ko'rilmagan qimmatli narsalar yaratadilar. Bunda ular yaratgan narsalar tarixda go'yo burilish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi, tarixni oldinga progressiv tomon harakatga keltiruvchi madad bo'lib xizmat qiladi. Masalan, biz Alisher Navoiyning genial shoir deb hisoblaymiz, chunki, u shunday asarlar yaratdiki, uning asarlari dunyoga kelishi bilan o'zbek adabiyotida o'zbek tili taraqqiyotida Yangi bir davr boshlandi. Talantli deb shunday odamlar aytiladiki, ular ma'lum sohada murakkab nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga, yangilik va progressiv ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli narsalar yaratishga qodir bo'ladilar.²

Har bir odamning qobiliyat va iste'dodi taraqqiyot mahsulidir. Insonning qobiliyati uning tug'ma layoqati asosida, muhitga bog'liq ravishda olayotgan ta'lim-tarbiyasiga qarab, shuningdek, kishining o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda o'sib, kamol topib boradi. Inson o'z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo'lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular **instinktlar, tug'ma layoqatlar** tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. **Tug'ma layoqat** tayyor, kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o'sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobiliyatga aylanmog'i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo'lgandagina ro'yobga chiqa oladi. Tug'ma layoqatni

¹ "Umumiy psixologiya" E.G.G'oziyev. Toshkent. 2002-yil nashri.

² "Umumiy psixologiya" E.G.G'oziyev. Toshkent. 2002-yil nashri.

irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yara- maydi. Layoqat irsiyat natijasigina bo'lib qolmay, balki, shu bilan birga ona homilasida o'sish natijasi hamdir. Layoqat kishidagi tug'ma imkoniyatdir. **Layoqat** kishining butun umri davomida o'zicha o'sib, kamolotga yetmaydi. Layoqat hali kishida mudrab yotgan imkoniyatlardir. Bu layoqatning «uyg'onib yuzaga chiqishi uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo'lmog'i lozim. Layoqatni xuddi uruqqa o'xshatish mumkin, urug'dan o'simlik ko'karib chiqishi, yetilib meva qilishi uchun qulay sharoit: tuproq, havo, quyoshning bo'lishi darkor. Kishidagi tug'ma layoqatning o'sib kamol topishi uchun zarur bo'lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir. Ijtimoiy muhit layoqatlarning o'sib, kamol topishi uchun qulay yoki noqulay bo'lmog'i mumkin. Qulay muhit kishidagi «mudrab yotgan» layoqatlarni uyg'otadi. Layoqatning o'smog'i uchun qulay sharoit bo'lishi kishining bolalik chog'larida, ayniqsa, muhimdir. Bolalar o'z o'yinlarida, odatda, kattalarga taqlid qiladilar. Taqlid qilish jarayonida bolalarda ma'lum bir layoqatlar dastlab uyg'ona boshlaydi. Musiqachilar, rassom yoki shoirlar, texnik xodimlar muhitida o'sgan bolalarning ko'pchiligida layoqatning juda barvaqt uyg'onishi sababi ko'proq mana shundadir. Noqulay ijtimoiy muhit sharoitida kishidagi tug'ma layoqatlarning «uyg'onmay» qolib ketishi mumkin. Bunday noqulay muhit kishida tasodifiy ravishda ko'rina boshlagan biron qobiliyat va iste'dod alomatlarini yo'qotib yuborishi yoki ularning paydo bo'lish vaqtini cho'zib yuborishi ham mumkin.

Qobiliyatlarni rivojlanishi va rivojlantira olishni ikki xil yo'li bor.

1- yo'l:

- Tanqidiy vaziyatlar;
- Umidsizlik hissi;
- Raqobatlasha olish;
- Shart-sharoitlarga baho bera olish;
- O'z kelajagini qobiliyatida yorqinroq qilish;

2- yo'l:

Qaysidir sohaga qiziqish bor, ammo qobiliyat mavjud emas. Shu holatda qiziqishlarni rivojlantirish kerakmi?

Bu holatda iste'dodini emperik tarzda kamol toptirish mumkin. Bunda insonning qilayotgan ishiga qiziqishi va buning unga yoqishi lozim, qolgan barcha narsa esa unga ergashadi. Kimdir alpinizm (tog' cho'qqilarini zabt etish)ga moyillika ega, ammo bunga qobiliyati yo'q. Inson umri davomida dasht-u biyobonlarni kezsa ham qobiliyatli bo'lib qolmaydi. Qobiliyat asosi bu moyillikdir, ya'ni bir vazifani qilish qanchalik qiziqarli bo'lsa moslashuvchanlik shuncha ortadi.

Qobiliyatni rivojlantirishning o'ta muhim omili insonning oila va oilaviy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari ekanligi aniq, xususan: **oila tuzilishi va uning hissiy muhiti, tarbiya uslubi va ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalarning farzandining iqtidoriga munosabati.** Ota-onalar va bolalar munosabatlarining uslublari masalasi batafsilroq o'rganildi. Olimlarning bir ovozdan ta'kidlashicha, ota-onaning qat'iy nazorati va zo'r bosimiga asoslangan bola tarbiyasining totalitar uslublari iqtidorli shaxsning rivojlanishini to'xtatuvchi va qullikka aylantiruvchi omil hisoblanadi. **Qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim jihati ota-onalarning bolalar iste'dodiga bo'lgan munosabatidir.** Bu omil bolaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Quyidagi munosabatlar turlari mavjud: > salbiy > e'tiborsizlik > ijobiy > gipersotsializatsiya. Gipersotsializatsiya bilan ota-onalar bolaning iqtidorliligi, unda alohida obro'-e'tibor yoki ularning amalga oshmagan intilishlari va qo'ldan boy berilgan imkoniyatlarini amalga oshirish imkoniyatini ko'rish orqali o'zlarini tasdiqlashga harakat qilishadi.³ Yuqorida aytib o'tilganidek, qobiliyatlar faqat faoliyat jarayonida rivojlanishi mumkin. Shuning uchun bolani imkon qadar

³ „Kreativfikrlash“ I.S. Hotamov, M.K. Olimov, G.R. Madrahimova, I.S. Foziljonov. Toshkent 2022-yil. Innovatsion-Ziyo nashri.

ertaroq u maxsus qobiliyatlarni namoyon etadigan faoliyatga kiritish kerak. Biroq, asosan, bir sohada bir tomonlama rivojlanish bolaga zarar etkazishi mumkin. Maxsus qobiliyatlarning har tomonlama rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun umumiy qobiliyat darajasini, keng dunyoqarashini, umumiy madaniyatini rivojlantirish kerak. Shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun har tomonlama rivojlanish zarur. Agar bola erta yoshda biron bir faoliyat uchun aniq qobiliyatlarni namoyon qilmasa, u ham har tomonlama rivojlanishi kerak, chunki o'rganish jarayonida u biror narsaga moyillik va qobiliyatlarni kashf qilishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat chuqur qiziqish va tegishli faoliyatga barqaror moyillik bilan birgalikda o'z mevasini berishi mumkinligi sababli, o'qituvchi bolaning qiziqishini faol ravishda rivojlantirishi, bu qiziqishlar yuzaki emas, balki chuqur va barqaror qiziqish bilan qo'llab-quvvatlanishiga intilishi kerak. Ko'pincha amalda u yoki bu sohada qobiliyatga ega bo'lgan bolaning bunday faoliyatga qiziqish bildirmasligi holatlari mavjud. Ba'zi holatlar, masalan, muvaffaqiyatsiz o'qitish usullarini qo'llash, fanni yomon bilish, noqulay hayotiy sharoit, ota-onaning qarshiligi tufayli bola tegishli fanga unchalik qiziqmaydi, unga befarqlik ko'rsatadi. Biroq, agar malakali o'qituvchi bolani biron bir faoliyatga chinakam qiziqtirishga muvaffaq bo'lsa, unda juda tez, ko'pincha kutilmaganda uning atrofidagilar uchun bu qiziqish va moyillik talabaning e'tiborini to'liq o'ziga tortadi. Bolalarning qobiliyatlarini tarbiyalashda qiyinchiliklarni yengishda ularning qat'iyatligini rivojlantirish kerak, ularsiz eng qulay moyillik va aniq qobiliyatlar natija bermaydi. Ba'zida g'ayrioddiy qobiliyatga ega bo'lgan bola muvaffaqiyatsizlikka uchraganida taslim bo'ladi, o'z qobiliyatiga ishonchini yo'qotadi va ilgari sevimli mashg'ulotlarga qiziqishni yo'qotadi. Bunday hollarda u o'qituvchining yordamiga va qiyinchiliklarni yengishda yordamiga muhtoj. Bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga intilishda ularda o'z-o'zini talab qilish va mehnatining samarasini tanqidiy baholash qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash kerak. Bolada

uning qobiliyatlari, muvaffaqiyatlari va yutuqlariga to'g'ri munosabatni shakllantirish juda muhimdir. Hech qanday holatda siz to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bolaga uning eksklyuzivligi yoki boshqa bolalardan ustunligi g'oyasini singdirmasligingiz kerak. Siz bolaning qobiliyatiga haddan tashqari qoyil qolmasligingiz, uni maqtashingiz yoki tengdoshlari bilan taqqoslamasligingiz kerak. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozim-ki, inson iste'dodining tabiati olimlar o'rtasida juda qizg'in munozaralarga sabab bo'ladi. Iqtidor tug'mami yoki hayot davomida rivojlanganmi? Musiqachi bo'lib tug'ilish kerakmi yoki o'z ustidagi mashaqqatli kundalik mehnat natijasida iste'dod rivojlanadimi? Qobiliyatlar sohasidagi tadqiqotlarni tavsiflovchi o'rganilgan materiallarga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: **Qobiliyatlar -bu har qanday faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beruvchi shaxsning individual psixo-fiziologik xususiyatlari majmuasidir. Jamiyatda har qanday faoliyat va hayotni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan umumiy qobiliyatlar va muayyan faoliyatga xos bo'lgan maxsus qobiliyatlar hisoblanadi. Demak insonda qobiliyat va iqtidorning o'sishiga tabiiy va sun'iy omillar bevosita ta'sir etib turadi. Bu holat ayniqsa, bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning psixologiyasi rivojlanishi, qobiliyatning o'sish davri va biror bir talantni o'zida sezganlik payti o'z davrida yuz berishi, aniqlanishi uchun uni agressiv muhitdan saqlash hamda undagi yo'nalganlikka, o'zgarishlarga befarq bo'lmaslik darkor.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Umumiy psixologiya“ E.G.G'oziyev . Toshkent.2002-yil nashri.
2. „Umumiy psixologiya“ M.E.Zufarova . Toshkent.2010-yil nashri.
3. „Psixologiya“ V.M.Karimova. Abdulla Qodiriy nashriyoti 2002-yil.
4. „Kreativfikrlash“ I.S.Hotamov, M.K.Olimov, G.R.Madrahimova, I.S.Foziljonov. Toshkent 2022-yil. Innovatsion-Ziyo nashri.
5. „Umumiy psixologiya“ F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Toshkent-2010.